

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA XOTIRANI TIVOJLANTIRISH ORQALI INGILIZ TILINI OSON O'RGATISH

Solijonova Dilafruz Vali qizi

Toshkent viloyati Chirchiq shahar 16-maktab psixologi.

Otepbergenova Aygul Kidirbayevna

Toshkent viloyati Chirchiq shahar 16-maktab psixologi.

Mahkamova Xilola Xasanovna

Toshkent viloyati Chirchiq shahar 16-maktab ingliz tili o'qituvchisi.

Annotatsiya: *Maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning diqqatini oshirib, xotirasini rivojlantirish orqali bu yosh davrining asosiy faoliyati bo'lgan o'quv faoliyatiga va xorijiy tillarni o'rganishga ijobiy ta'siri haqida bayon qilingan. Ingliz tili o'qituvchilarining xorijiy tillarni o'rganishda shaxsiy tajribalari yoritib berilgan..*

Kalit so'zlar: *Kichik maktab yoshi, o'quv faoliyati, xotira, psixologiya, diqqat, ixtiyoriy diqqat tafakkur, muloqot muhiti, mustaqil fikrlash, o'qituvchi, takrorlash, ingliz tili darsligi, interaktiv metodlar, eksperiment, mativatsiya.*

KIRISH:

Bugungi kunga kelib kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlarning erkin fikrlovchi, barkamol shaxs bo'lib shakllanishi uchun ularni har tomonlama rivojlantirish chora tadbirlari amalga oshirilmoqda. Ularning psixologik, jismoniy va ijtimoiy jihatlarini o'rganilib, o'zlarini erkin tutishi va fikrini mustaqil ifodalashida to'siq bo'ladigan salbiy psixik holatlarni aniqlash hamda bartaraf etish lozimligiga katta ahamiyat qaratilmoqda. Yoshlarni har tomonlama shakllanishining dastlabki bosqichi bu kichik maktab yoshidir. Kichik maktab yoshi bu ijobiy o'zgarishlar va yangilanishlar davridir. Shuning uchun ham rivojlanishning shu bosqichida har bir bola erishgan muvaffaqiyatlar darajasi nihoyatda muhim hisoblanadi. Agar shu yoshda o'quvchi bilish, o'rganish quvonchini his etmasa, o'qish malakalarini egallay olmasa, do'stlashishni bilmasa o'ziga nisbatan, o'z imkoniyat va layoqatlariga nisbatan ma'suliyatli bo'la olmasa, bu ishlarni kelgusida amalga oshirish qiyinroq bo'lib, bolada ruhiy va jismoniy zo'riqishni talab etadi. Negaki, bu holatlar faqatgina yoshlarning bilim olishiga to'siq bo'lib qolmasdan, o'z navbatida shaxsning boshqa psixik jarayonlarning normal rivojlanishida salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday salbiy holatlardan biri o'quvchilarda kuchli xoxish va diqqatning yetishmasligida deb bilaman. Xozirgi kunda talim muassalalarida o'qituvchilar zamonaviy texnologiyalardan foydalanib mashg'ulotlarni o'tmoqdalar. Tilni o'rganish bugungi kunda o'qituvchidan ko'ra aynan xorijiy tillarni o'rganish o'qituvchidan ham o'quvchiga ko'proq bog'liqdir.

ASOSIY QISM:

1. Bolaning o'sishi, uning psixikasi va ongining taraqqiyoti, jamiyat a'zosi sifatida voyaga yetishi muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadi. Kichik maktab yoshi davri 1-4 sinf o'quvchilarining yosh oralig'ini o'z ichiga oladi. Bu davrda bola psixikasida muayyan o'zgarishlar sodir bo'lishini kuzatish mumkin. Kichik maktab davrining asosiy faoliyati bu o'qish faoliyatidir. O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchi uchun nafaqat bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanishi, balki, shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish uchun ham imkoniyat yaratadi. Maktabga qadam qo'ygan har bir bolada 2 ta dastlabki qiyinchiliklarga uchraydi birinchisi o'qituvchining talablarini bajarish va yangi do'stlar ortirishdir. Do'st ortirishda qo'shimcha xorijiy tillarni bilish muloqotni sifatini yanada yaxshilaydi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, yetakchi bo'lgan o'quv faoliyatidan tashqari boshqa faoliyatlar-o'yin, muloqot va mehnat faoliyati ham o'quvchi shaxsi rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, bu faoliyatlar asosida muvaffaqiyatga erishish motivlari bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy xususiyatlar tarkib topa boshlaydi. O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi bolalarda o'qishda ma'lum yutuqlarga erishish extiyojini qondirishga, shuningdek, tengdoshlari orasida o'z o'rniga ega bo'lishiga imkoniyat ham yaratadi. Aynan ana shu o'rin yoki mavqega erishish uchun ham bola yaxshi o'qish uchun harakat qilishi mumkin. Bu yoshdagi bolalar doimiy ravishda o'zlari erishgan muvaffaqiyatini boshqa tengdoshlari muvaffaqiyati bilan solishtiradilar. Ular uchun doimo birinchi bo'lish nihoyatda muhim. Kichik maktab yoshidagi bolalarni xotira va diqqatini barqarorligi ularning muvaffaqiyatga erishishi uchun ahamiyati kattadir. Shaxsning taraqqiyoti bevosita uning xotira jarayoniga bog'liq. Esda olib qolishning muvaffaqiyati ko'p darajada esda olib qolinayotgan materialga yoki shu material bilan aloqasi bo'lgan faoliyatga shaxsning ijobiy munosabati bilan bog'liq bo'ladi. Bu munosabat qiziqish, diqqat-e'tibor tarzida namoyon bo'ladi. Qiziqish muvaffaqiyatli esda qoldirishning eng birinchi shartlaridandir. Bizda qiziqish tug'dirgan narsa tezroq va mustahkamroq esda qoladi. Biz, odatda, bizni qiziqitirmaydigan narsalarga e'tibor bermaymiz va ularni hatto payqamaymiz. O'quvchilar qiziqqan, o'zlari «sevgan» fanlarining mazmunini puxta o'qib olishlarini har bir pedagog yaxshi biladi. Bu aytilganlardan ta'lim-tarbiya ishida mana bunday xulosa chiqadi: o'quv materialini o'quvchilarning xotirasida mahkam o'rnatish uchun maktabda ta'lim ishini shunday olib boorish kerakki, har bir fan o'quvchilarda qiziqish, havas tug'diradigan bo'lsin. Esda qoldiriladigan materialga qiziqish, diqqatimizni shu materialga qaratadi, his-tuyg'umizga ta'sir qiladi, zavqlantiradi va beixtiyor esda qoldirish jarayonlarini kuchaytiradi. Qiziqish esda qoldiriladigan materialni, shaxsning o'zi va jamiyat uchun ahamiyatini tushunish bilan bog'liq bo'lsa, esda qoldirish samaraliroq bo'ladi. Diqqat esda mustahkam saqlab qolishning zaruriy shartidir. Diqqat esga olish lozim bo'lgan materialga nechog'li kuchli sur'atda qaratilgan bo'lsa, u shunchalik tez va puxta esda qoladi, chunki diqqatning nerv-fiziologik asosi miya po'stining bir qismida kuchli qo'zg'alish (optimal qo'zg'alish)

o'chog'ining paydo bo'lishidir. Ana shunday qo'zg'alish paydo bo'lishi bilan yangi nerv bog'lanishlar tezroq hosil bo'lib, mahkam saqlanib qoladi. Ko'pincha, ayrim kishilarning o'z xotirasining zaifligi, tez va puxta esda saqlab qololmasligi to'g'risidagi shikoyatlari analiz qilib ko'rilganda, esda yaxshi saqlab qololmasliklarining sababi ular diqqatining bo'shligida, tarqoqligida, miya po'stidagi tegishli qo'zg'alish o'choqlarining zaifligida ekanligi ma'lum bo'ladi. Bunday kishilar diqqatlarini bir nuqtaga jamlab qunt bilan ishlashga harakat qilishlari bilan ulardagi xotira ham kuchaya boradi. Esda qoldirish usuli hayot va faoliyatning turli hollarida biror muddatgacha nimanidir qisqa yoki uzoq vaqtgacha esda qoldirishga to'g'ri keladi. Biz shunga asoslanib esda olib qolish qisqa, uzoq muddatli va operativ xotira deb ajratamiz. Shunday qilib, esda qoldirish usuliga yoki maqsadiga ko'ra xotira qisqa muddatli va uzoq muddatliga bo'linadi. Bizga ma'lumki, zamonaviy ta'lim jarayonida noan'anaviy usullardan foydalangan holda dars berish va shunday usullarda o'rganish keng targ'ib qilinmoqda. Chet tilini o'rganuvchi yosh avlod so'z yodlash usullari xotirani rivojlantirish har qancha samarador bo'lmasin, baribir, eng yaxshi muvaffaqiyat bu – o'quvchining o'zingizga bo'lgan ishonchidir, tirishqoqligingiz va mehnatsevarligingiz bo'lib qolaveradi. Zero, buyuk mutaffakir Johann Wolfgang von Goethe aytganlaridek, ("Those who know nothing of foreign language know nothing of their own".) "Chet tillar haqida hech narsa bilmaydigan odam o'z tili haqida ham hech narsa bilmaydi". Chet tilini o'rganishning eng qulay usuli bu- o'sha tilde gaplashayotganlar bilan yaqin muloqot qilishdir. Chet tilini o'rganaman degan o'quvchi yoshlarimiz avvalambor o'z oldilariga aniq bir maqsad qo'ya olishlari kerakdir. Kuchli ishtiyoq biror tilni o'rganish uchun eng muximi hayotdagi har bir sohada bo'lganidek motivatsiyadir. O'quvchilar O'ziga har doim bu tilni nima uchun o'rganishim kerak degan savolni berishi va har qanday qiynalgan vaziyatda yoki ikkilanganida tilni o'rganishdan maqsadini eslashi lozim. Eng muximi bu tilni o'rgana olishida, hammasi sodda, unchalik qiyin emasligi, til o'rganishda boshqalardan kam joyi yo'q ekanligini anglab yetishdir. Tilni o'rganishda o'ziga bo'lgan ishonchni ortira olganidan keyin tilni o'rganishga kirishsa bo'ladi. Har kunlik mashg'ulot h ozirgi kunda ko'plab til kurslari haftada bir yoki ikki kun ikki soatdan dars tashkillashtiradi va kundalik hayot ishlari bilan band bo'lgan til o'rganuvchi kishi boshqa kunlarda tilga vaqt ajratolmaydi va odatda keyingi darsgacha oldingi darsdagi mavzularni esdan chiqaradi va bu tilni o'rganish jarayonini ancha sekinlashtiradi. Shu uchun ham xoxlagan bir chet tilini o'rganayotganda, uni har kuni o'rganish kerak va shunda har kuni takrorlanish natijasida tilni o'rganish jarayoni ancha tezlashadi. Shu uchun ham biror tilni yaxshi o'zlashtirmoqchi bo'lsa, o'ziga har kunlik majburiyat yuklashi "Men har kuni, har qanday vaziyatda ham ingliz tilini o'rganishga yarim soat yoki bir soat vaqt ajrataman!". Shundagina tilni eslab qolish imkoniyatingiz keskin oshib boradi.

XULOSA:

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, kichik maktab yoshdagi bolalarda xotiraning kuchliligi hisobiga xorijiy tillarni oson o'zlashtirishi uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Kichik maktab yoshi davrini bolaning turli xorijiy tillarni o'rganishda muvaffaqiyatga erishishini belgilab beruvchi asosiy xususiyatlarning yuzaga kelishida tilshunos olimlar tilni o'rganishni to'rtta katta yo'nalishga bo'lishgan:

-O'qish -bu chet tilida o'qilgan matnni tushinish qobiliyati;

-Eshitish -bu chet tilida eshitilgan matnni tushinish;

-Yozish -chet tilida yozish qobiliyati;

-Gapirish -o'z fikringizda chet tilida ifoda eta olish qobiliyati. Ushbu to'rt narsaga yetishish uchun uchta eng kerakli narsani o'zlashtirish muximdir: gramatika, lug'at boyligi va talaffuz. Demak, ushbu uch narsani o'zlashtirmasdan turib chet tilini o'rganish ancha qiyinlashadi. Qaysi vositalar qulay?Endi, ushbu uch narsani qaysi vositalar asosida tez o'rganish y'ollarini taxlil qilamiz: 1. Grammatika.Odatda chet tilini o'rganayotgan ko'plab o'quvchilarga gramatika haqida gapirsa ensasi qotadi. Xoxlasak xoxlamasak tilni o'rganishda eng murakkab qismi aynan gramatikadadir. Shu uchun ham gramatikani o'rganish juda muximdir. Bu jarajonda fan o'qituvchilarining yangi zamonaviy interaktiv metodikalardan foydalanishlari muhimdir. Ingiliz tilini o'rganishda eng sodda yo'ldan borish kerak. Shuning uchun ham e'tibor bering: Ingliz tilida sodda gap nimalardan iborat? Ega+Kesim+To'ldiruvchi. Demak, gapning shu uch qismida ishlatiladigan gramatikani o'rganish tilni o'rganish uchun yetarlidir. Har qanday tilni o'rganishdan maqsad shu tilda gapira olishdir. Shuning uchun ham aynan kundalik gapirishga kerakli gramatik mavzularnigina o'rganing. Uchta kerakli zamonni o'rganishning o'zi yetarli. Aynan, shu tomondan kelib chiqqanda, gramatikani o'rganish siz uchun taxminan 80 foizga osonlashadi.

1. Gramatikani o'rgananda tilga eng kerakli mavzularni tanlab olgandan so'ng ularni o'rganib chiqishni haftalarga taqsimlab oling. Har bir mavzuga bir haftadan vaqt ajrating va hafta davomida bir mavzuni chuqurroq o'rganib boring. Natijada, uch oyda chet tilida gapira olish uchun yetarli darajada gramatik asosga ega bo'lasiz va ko'rganingizdek bu siz o'ylaganchalik ham murakkab narsa emas.

2. Lug'at o'rganish.Bu yerda ham o'zingizni majburlab yillar davomida so'z yodlash bu eng noto'g'ri metoddir. Maktab yillarimda har kuni o'zimga 10tadan so'z yodlashni vazifa qilib olgandim. Muammo shunda ediki, ingliz tilida gapirganda ushbu so'zlarni qo'llay olmasdim, ularning ko'pchiligi kundalik hayotda umuman ishlatilmas va tezda unut bo'lib ketardi. Shunda tushindimki, bu uslub tilda so'z boyligini orttirishda juda noto'g'ridir. Vaqt o'tgan sari tajribadan tushundimki, so'z yodlashning eng oson yo'li o'rganilayotgan chet tilida ko'proq o'qishdir. Ingliz tilini o'rganayotgan bo'lsangiz, o'ziz uchun zerikarli, hech qanday ahamiyatga ega bo'lmagan matnlarni o'qigandan ko'ra internetda o'ziz qiziqqan

sohadagi matnlarni yoki kitob va jurnallarni o'qing. Hamma tushunmagan so'zlarga to'xtamasdan, faqatgina gapning manosi anglab yetishga kerakli notanish so'zlarni uchratganingizda lug'atdan yoki Google Translate kabi xizmatlardan tarjimasini toping va uni daftarga qayt etib qo'ying. Iloji bo'lsa har kuni 3-4 bet o'rganilayotgan chet tilida biror bir matn o'qishga harakat qiling va har safar notanish so'zni tarjimasini topib yozib keting. Bu yozganlaringizni yodlashga hech qachon kirishmang, men yozganlarimni hatto qaytib o'qib ham ko'rmiyman odatda. Bizning yod olish qobiliyatimiz shunday shakllanganki, agar biz biror so'zni ko'rib, shunchaki tarjima qilib ketsak, u esimizda qolmaydi, lekin biror joyda qayd etib qo'ysak, miya bu narsaning muhimligiga urg'u beradi va so'z yodimizda qolib boshlaydi. Natijada har xil matnlarda 5-6 marta uchragan bir so'z unutilmas darajada yod bo'ladi va shu bilanbirga so'zning qaysi kontekstda qaysi manoda qo'llanilishini ham bilib olamiz. Lug'ato'rganganda tilda aynan eng ko'p ishlatiladigan so'zlarnigina o'rganish kerak. Statistika ma'lumotlariga ko'ra ingliz tilida eng ko'p ishlatiladigan 200ta so'z ingliz tilidagi yozishmalarni teng yarmini tashkil etar ekan. Shu uchun ham lug'at yodlaganda tilda eng ko'p ishlatiladigan so'zlarni yod olishni o'zi yetadi. Keyin, unga faqatgina o'zingizga kerakli sohadagi so'zlarni qo'shib o'rganishgina yetarli. Mana bu manzilda siz o'rganayotgan chet tilida eng ko'p ishlatiladigan so'zlar ro'yxatini ko'chirib olishingiz mumkin. Demak, lug'at o'rganga prioritetni aniqlab, aynan kerakli narsalarni o'zini o'rganishgina yetarli. Shunda ham so'zni xalq tilida aytganda "qoriga o'xshab yodlamasdan", ro'yxatdagi so'zlarning har biri ishtirokida beshtadan gap yozishga harakat qiling. Har safar ular ishtirokida gap tuzganingizda so'zlar texnik tarzda yod bo'la boshlaydi va lug'at boyligingiz boyib boradi. Demak, chet tilida gapirilganda 90 foiz holatda 1000 ga yaqin ko'p qo'llanuvchi so'z ishlatiladi xolos, qolganini bo'lsa har kim o'z sohasiga moslab o'rgansagina yetarlidir. Masalan, tibbiyot xodimi ushbu 1000ta so'z va unga qo'shib tibbiyot sohasiga bog'liq 1000 ga yaqin so'z o'rgansa hech qanday qiyinchiliklarsiz o'z sohasida ingliz tilida erkin muloqotda bo'la oladi.

3. Talaffuz. Har bir til o'zining talaffuziga ega. Tilshunos olimlarning fikricha jamiki 150 dan ortiq tovush bo'lib, har bir til odatda o'rtacha 30ta tovushni ishlatadi. Natijada tillarning talaffuzida juda katta farq kelib chiqadi. Odatda tilni o'qishni o'rgangandan so'ng, talaffuzni yaxshilashning eng oson uslubi bu chet tilida iloji boricha ko'proq tinglashdir. Shu tilda kinoko'rish kerak, qo'shiq va har xil radio matnlarni eshitish kerak. Yandex tizimida izlasangiz birgina ingliz tilining o'zida agar minglab bo'lmasa yuzlab audio kurslarni topasiz. Ularni player yoki telefoningizda eshitib yurish sizning ham tilni tushinishingizni osonlashtirib boradi, ham talaffuzingiz yaxshilanishda davom etadi. Chet tilida qo'shiq eshitganda undan yana bir boshqa maqsadda ham foydalansa bo'ladi. Yaxshi ko'rgan qo'shig'ingizni matnini chet tilida toping va uni o'z tilingizga lug'at yordamida tarjima qiling. Natijada, nafaqat qo'shiqning ma'nosini to'liq tushunib yetasiz, shu bilan birga

lug'at boyligingizni boyitib olasiz, bu so'zlar sevimli qo'shig'ingiz bilan bir umrga xotiraga muxrlanadi. Ushbu uch narsadan tashqari tilni o'rganishda muhim narsalardan biri til muhitiga kirib borishdir. Iloji boricha o'rganilayotgan chet tilidagi materiallarni ko'proq ishlatishga harakat qilsayiz, asta-sekinlik bilan til darajangiz yaxshilanib boradi. O'ylaymanki, chet tilini qanday qilib oson o'rganish mumkinligini imkoni darajasida sizga tushintirdim. Bu meni ushbu sohadagi bir necha yillik tajribamdan kelib chiqqan xulosalardir. Bu narsa shuni anglatadiki, bugungi kunda 3 yoki 6 oyda chet tilini o'rgatishni vada berayotgan o'quv markazlari sizni aldamayapti, balki to'g'ri tanlangan metodika evaziga bu haqiqatdir. Chet tilini o'rganish bo'lsa o'quv markazlari va o'qituvchilardan ko'ra bugun faqat va faqat sizga bog'liqdir. Texnika taraqqiyoti evaziga, bugun ishonch, ishtiyoq va to'g'ri tanlangan metodikaning o'zi chet tillarini o'rganish uchun yetarlidir.

Demak, o'quvchilarga ingliz tilini innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlar orqali o'rgatish ularda bu tilni o'rganish uchun, mavzu yuzasidan bilim, ko'nikma, malakalar hosil bo'lishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Z.T.Nishonova, N.G. Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazrova Rivojlanish psixologiyasi.Pedagogik psixologiya-T.2017
2. Xaydarov F.I.,Xalilova N.I. "Umumiy psixologiya". T.:2010.-167-177 b
3. Asqarov Anvarjon Rahimjon o'g'li "XOTIRANI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS USULLARI"
4. Shohruh – Mirzo Rahmonov va Iskandar Sattibaev, "so'z yodlash sirlari", Toshkent-2015-yil, " Istiqlol Nuri"- nashriyoti,
5. 5000 words in a months" Yangi innovatsion assotsatsiyali lug'at.
6. 4000 Essential English words. Paul Nation 2009 yil.